



**“MAKTABGACHA TA'LIM:  
KECHA, BUGUN VA ERTAGA”  
MAVZUSIDAGI**

**Respublika ilmiy-amaliy  
konferensiya materiallari  
(2021 yil 21 may)**

**I**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**



**A.QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**

**“MAKTABGACHA TA'LIM: KECHA, BUGUN VA ERTAGA”  
MAVZUSIDAGI**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari**  
**I QISM**  
**(2021 yil 21 may)**

**Jizzax-2021**

3. Диагностика социального интеллекта. Тест Дж. Гилфорда и М. Саливана. - СПб., 1999;
4. Айсенк Г.Ю. (1995). Зачатие и обнаружение интеллекта // Вопросы психологии., М., -№1. - стр. 111-129.
5. Исманова К. Организуйте практические занятия, используя инновационные методы. - Журнал Проблем Образования. Выпуск 2, 2012.

## **YOSHLAR KAMOLATI VA MUSIQA**

**Otamurod Xolmirzayev JDPI o'qituvchisi,  
Muqaddam Dostonova JDPI talabasi**

O'zbekiston o'ziga xos taraqqiyot yo'lidan borayotgan bugungi kunda o'tmish ajdodlarimizdan qolgan madaniy merosni tiklash, o'zlashtirish, rivojlantirishga hissa qo'shish va shular asosida yoshlar ma'naviyatini yuksaltirib, kamolotga yetkazish har bir ustoz-o'qituvchining vazifasi hisoblanadi. "Xalqning ma'naviyati, madaniyati, uning madaniy merosi, tarixi va o'ziga xosligi qayta tiklanayotganligi jamiyatimizni yangilash va taraqqiy ettirish yo'lidan muvaffaqiyatli ravishda olg'a siljitishda hal qiluvchi, ta'bir joiz bo'lsa, belgilovchi ahamiyatga egadir. Yuksak madaniyatni esa chuqur ichki ma'naviyatga ega bo'lgan xalq yaratadi".

Musiqasi san'ati nozik va serqirra bo'lib, hayotimizning mazmunli bo'lishida, kayfiyatimizni ko'tarishda, ezgulik tomon yetaklashda katta o'rin tutadi. Tabiiyki, har qanday avlod vakillari ma'lum bir jihatlari bilan bir-birlaridan farq qiladilar. Bunda taraqqiyotning ta'siri katta. Shunday ekan avlodlarga ajdodlardan meros bo'lib qolgan, asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan o'ziga xos an'analar, umrboqiy qadriyatlardan uzilib yashab bo'lmaydi. Istiqloq avlodiga, ya'ni yoshlarga qo'yilayotgan katta talablardan biri ham shundan iborat. Taqdir siylovi bilan millionlab ajdodlarimiz orzu qilgan kunlarni ko'rish, chin ma'nodagi toza havodan nafas olish baxti bizga nasib

etdi.

Yangi avlodni tarbiyalab beradigan, umrni bezaydigan kasblarni egallashga xizmat qilish oldimizdagi vazifalardan. Shukurki, mustaqillik yillarida barkamol avlodni tarbiyalashning eng muhim, eng ommabop vositasi bo'lgan xalq o'yinlari, kurash va qo'shiqlarini rivojlantirishga kirishildi. Biz yashayotgan tabarruk zamin bag'rida necha-necha buyuk insonlar hayot kechirgan. Ilmu-ma'rifat, adabiyot, san'atda, jasoratda tengsiz, yuksak insoniy fazilatlari bilan ibrat bo'la oladigan nomlari abadiyatga muhrlangan buyuk yurtdoshlarimiz juda ko'p. Ularning hayot va ijod yo'llari juda katta maktab.

Shular orasida o'zbek musiqa madaniyati ham qadimiy va rang-barang va ayni vaqtda hozirgi zamon an'alarini o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda. Bunda avvalo betakror xalq musiqasi, mumtoz musiqiy meros, milliy bastakorlik, hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek xalq havaskorligi hamda jo'shqin estrada ijodiyoti kabi shaklan va usluban nihoyatda serjilo, maftunkor jabhalar namoyon bo'ladi. Mustaqillik sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan diqqat-e'tibor, uni taraqqiy ettirishga bo'lgan intilish ijobiy natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Prezidentimiz e'tirof etganidek: "Ma'naviyat – insoniyatning, xalqning, jamiyatning, davlatning kuch - quvvatidir". Ushbu oliy maqsadlarni hayotga joriy etish uchun Respublikamizda turli-tuman tadbirlar, tanlovlar o'tkazilmoqda. M.: "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiqlar bayrami o'tkazish to'g'risida (1996); "Respublikada musiqiy ta'limni, madaniyat va san'at o'quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to'g'risida" (1996); "O'zbekistonda estrada san'atini yanada rivojlantirish to'g'risida" (1998, 2001); "Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi to'g'risida" (2008), "Yagonasan, muqaddas Vatan" (2009) ko'rik-tanlovi va boshqa O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari o'zbek musiqa madaniyatining yanada rivoj topishiga qaratilgan. Mustaqillik yillarida respublikamizda va uning musiqiy hayotida tarixiy voqealar hamda

muhim o'zgarishlar ro'y berdi. Jumladan, Samarqandda "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivali (1997,1999, 2001, 2003, 2005, 2007, 2009, 2011, 2013, 2015, 2017, 2019); Toshkentda Xalqaro simfonik musiqa festivali (1998, 2000, 2003, 2006); 1999 yili "Alpomish" dostonining 1000 yilligi; 2000 yildan boshlab "Navro'z" qo'shiq-tanlovi, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Imom al-Buxoriy, al-Farg'oniy kabi buyuk ajdodlarimiz tavalludlariga bag'ishlangan shonli sanalar keng nishonlandi, shu yillari o'zbek estrada san'ati ham qator yutuqlarga erishdi. "Ofarin", "Ona zamin yulduzlari", "Nihol" sovrinlarining ta'sis etilishi ham fikrimizning dalilidir. Mustaqillik yillari o'zbek an'anaviy musiqasiga e'tibor yanada kuchaydi. Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va marosimlarning tiklanishi musiqa sohasida ham ancha o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Qadimiy milliy musiqamizdagi boy badiiy-tasviriy vositalar bilan bir qatorda, yangi janr va turlarini o'zlashtirish natijasida o'zbek musiqa san'ati yanada yuksak darajaga ko'tarildi. Shu boisdan Respublikamizda ko'plab ko'rik-tanlovlar tashkil qilinmoqda. Xususan, mustaqillik yillarida o'tkazilgan katta ashula ijrochiligi va oilaviy ansambllar (Qo'qon, 1991; Shaxrisabz 1994;) "Alla" ijrochilari (Toshkent, 1992, 1994, 1998, 2000, Marg'ilon, 1996), to'y-marosim qo'shiqlari ijrochiligi (Toshkent, 1993), folklor-etnografik jamoalari "Chashma" tanlovi (Toshkent, 1994), "Iste'dod" nomli yosh xonandalar (Toshkent, 1995,), baxshi-shoirlar (Denov, 1991; Narpay,, 1993; Toshkent, 1995, 1997; Termiz, 1999;) maqom ijrochiligi va xalq cholg'ulari ansambllari (Shaxrisabz, 1996), "Barhayot siymolar" (Toshkent, 1998, 1997, 1998, 2005); Ma'murjon Uzoqov va Jo'raxon Sulonov nomidagi yosh xonandalar (Marg'ilon, 1997 yildan boshlab har ikki yilda bir marta), Xoji Abdulaziz Rasulov nomidagi yosh xonandalar (Samarqand, 1997 yildan), Komiljon Otaniyozov nomidagi yosh xonandalar (Urgyench, 2001), Yu.Rajabiy nomidagi IV Xalqaro va V Respublika Maqom ijrochiligi (Toshkent, 1995, 1999). Bu tanlov, festivallar iqtidorlilarning chinakam yangi avlodini kashf etdi. Tanlovlar yosh o'g'il-qizlarni yangi ijodiy marralar sari ilhomlantirish, ularning salohiyatlarini xalqaro miqyosda namoyish

etishga xizmat qilmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar .**

1. I. A.Karimov “Barkamol avlod orzusi” Tosh. Sharq nashriyoti.1999-yil
2. I.A.Karimov “Barkamol avlod O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” T.Sharq nashr 1998-yil.
3. I.Karimov Yuksak ma`naviyat-yengilmas kuch.- Toshkent: O`zbekiston,2008.
3. S.Dolimov “Qobusnoma” Tosh.O`qituvchi nash,2006-yil.
4. J.To`lanov “Qadryatlar falsafasi” Tosh.O`zbekiston nash.1998-yil.
5. A.Odilov O`zbek milliy cholg`ularida ijrochilik tarixi.
6. H.Hamidov O`zbek an`anaviy qo`shiqchilik madaniyati tarixi.Toshkent. O`qituvchi nashr 1996 yil.
7. R.Tursunov Halq musiqa ijodiyoti va adabiyoti. Toshkent ma`rifat-madadkor nashr 2002 yil.

## **MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY SIFATLARINI TEATR YORDAMIDA TAKOMILLASHTIRISH**

**A.Xamroyeva, JDPI o`qituvchisi**  
**F.G`.Rayimkulova JDPI talabasi**

Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan tub islohotlar, ko`pgina loyihalar ularning barchasi biz yoshlarning ertasi uchun qilinayotgan say-harakatlardir. Bu loyihalar qatoriga Davlatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning yoshlar manaviyatini yuksaltirish, bo`sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan besh muhim tashabbuslarini keltirib o`tishimiz darkor. Mazkur besh muhim tashabbusdan ko`zlangan maqsad jismonan sog`lom, manan yetuk

---

**“МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ: КЕЧА, БУГУН ВА ЕРТАГА”  
МАВЗУСИДАГИ**

**Respublika ilmiy-amaliy konferensiya  
MATERIALLARI**

Муҳаррир: **Т.Эргашев**  
Мусахҳих: **Ж.Муртозаев**  
Саҳифаловчи: **С.Нормухаммедов**

Гувоҳнома № 14-0003, 30.04.2020  
Офсет қоғози. Босишга рухсат этилди 19.05.2021.  
Формат 60x84. Гарнитура «Times New Roman».  
Шартли босма табок 10  
Адади 100 нусха. Буюртма № 13

---

ЖДПИ Таҳририй-нашриёт бўлимида чоп этилди.  
130100, Ш.Рашидов шох кўчаси, 4-уй  
Тел./факс: (+99872) 226-02-93  
(+99899) 525-67-99

